

TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA AMALIYOTCHI PSIXOLOGNING O'RNI

Axmatova Guli Xurram qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM o'qituvchisi Qashqadaryo viloyati.

+998975859601

gulixurramovna@gmail.com

Annosiya: Ushbu maqolada ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagog psixologlarni faoliyatida yuzaga keladigan turli muammolarni hal qilish masalasi yoritilgan. Psixolog konsultantlarning ish faoliyatini yaxshilash O'zbekiston Respublikasining qaror va farmonlar orqali ko'rib chiqilgan. Umumta'lim maktablarida psixologik xizmatni tashkil etishning mazmun mohiyati masalalari yoritilgan.

Tayanch so'zlar: korreksiya, psixologik yordam, jarayon, psixologik yordam, psixologik xizmat.

Bugungi kunda davlatimiz ta'lim sohasidagi islohatlari yangi kishini shakllantirish vazifalarining xilma-xilligi va murakkabligi bo'lajak pedagoglar tayyorlash masalasini maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi xodimlarining oldiga, pedagogika sohasida ta'lim berayotgan institutlari hamda universitetlari rahbarlari, professor-o'qituvchilarining oldiga dolzarb masala sifatida qo'yimoqda. Maktabga o'quvchini zamonaviy ta'lim berish orqali bilim, ko'nikma va malakalisini shakllanitish asosiy ustuvor vazifalardan biridir. Pedagoglarning yuqori malakali kadir bo'lishlari amaliyot davomida talabalarning malakasini oshirishda yetakchilik qiladi. Shu boisdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" gi PF-134-sonli Farmonining 7-bandida hamda 2022-yil 21- iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-Qarorining 2-bandida pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan 2-4-bosqich talabalari uchun haftalik o'quv mashg'ulotlari «4+2» tartibida, shu jumladan, darslarning 4 kuni oliy ta'lim muassasasida, 2 kuni maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amaliyot o'tash tartibida olib borilishini ta'minlash vazifasi ko'rsatilgan.

Ta'lim tizimida psixologik xizmatni tashkil etish haqida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 12.07.2019 yildagi 577-son 1 bobda psixologik xizmatning asosiy vazifalari quyidagicha keltirilgan.

-o'quvchilarning qobiliyati, layoqati, qiziqishlari hamda kasb-hunarga moyilliklari asosida to'g'ri kasb-hunar tanlashlariga ko'maklashish;

-turli yosh davrlarida o'quvchilarning shaxsiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini psixologik jihatdan kuzatib borish, ta'lim-tarbiyadagi psixologik nuqsonlarni aniqlash, ularning aqliy taraqqiyotida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday salbiy og'ishlarning oldini olish;

-o'quvchilar ta'lim muassasasining ijtimoiy muhitiga moslasha olmasligi holatlarini korreksiyalash, ularni ijtimoiy reabilitatsiya qilish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish;

-pedagogik jamoalarda sog'lom psixologik muhitni yaratish va qo'llab-quvvatlash, jamoa a'zolarining hissiy-emotsional holatlari, shaxslararo munosabatlar va ziddiyatli xatti-harakatlarni korreksiyalash, ularning psixologik madaniyatini yuksaltirish;

-iste'dodli va iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, ularning individual-psixologik, fiziologik xususiyatlari va qiziqishlarini o'rganish, qobiliyatlarini namoyon etishlari va rivojlantirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;

Ta'lim sohasidagi psixologlarning vazifalari rivojlanish jarayonidagi o'quvchilarga yordam ko'rsatish, ularni qiynayotgan muammolarini yechimiga yordam berish, pedagog va o'quvchilar o'rtasidagi turli nizolarni profilaktika qilish vazifalari turadi.

Umumta'lim maktablarida psixologik xizmatini tashkil etish, yo'lga qo'yish jarayonidagi muammo pedagog va psixologlarning bir-biriga bo'lgan munosabatlarda o'xshashlikni tashkil etishdir. Hozirgi vaqtda maktablarimiz pedagoglar va ota onalarning psixologik bilimlari yetarlicha emasligi tufayli paydo bo'layotgan muammolardan aziyat chekmoqda.

Psixologiya sohasida Psixologik xizmatning asosiy mazmuni sog'lom shaxsning o'sishini ta'minlash muammosidir. Birinchi bo'lib 1975 yilda Estoniyada psixologik xizmat tashkil etilgan. Uning rahbari X.I.Liyets, Yu.L.Serd bo'lib tarbiyasi qiyin o'smirlar uchun ish olib bordilar. Rossiyada I.V.Dubrovina psixologik xizmatning rivojlanishiga juda katta hissa qo'shgan. Har bir davlatning ijtimoiy taraqqiyoti o'sha davlat hududida yashovchi fuqarolarning ijodiy o'sishi va axloqiy potensialiga bog'liq bo'ladi. Jumladan, bu kasb AQShda o'tgan XX asrning 1960 yillarida paydo bo'lib, hozirgi zamon psixologiyasidagi asosiy manba hisoblanadi.

Psixologik xizmat tushunchasini quyidagicha anglashimiz mumkin: bu insonga qiyin vaziyatlarda yordam ko'rsatish, bu odatdan tashqari sharoitga ko'nikishda yordam berishdir. Psixologiya xizmati - bu shaxsning muvaffaqiyatli o'qishi, kasb tanlashi, rivojlanishi, hayot yo'lini tanlashi uchun o'z bilimini anglab

etish va qo'llanilishida yordam ko'rsatishdir. Bu xildagi yordam deyarli hammaga: bolalarga ham, o'smirlarga ham, yigit-qizlarga ham zarur. Ko'pincha shunday bo'ladi: kishi qiyin vaziatdan qanday qilib chiqishini bilmaydi. Psixologik xizmat qaltis yosh davrida bo'lgan kishilarga ayniqsa zarurdir. Bular - maktabga kirish, boshlang'ich maktabni tamomlash, o'smirlik davri, maktabni tamomlash va hayot yo'lini tanlash davridir.

Psixologning umum ta'lim maktablari va ta'lim dargohlarida bir qancha vazifalarni bajaradi:

- Yosh doirasidan kelib chiqqan holda amaliyotchi ta'lim muassasasi o'quvchilarning shaxsiy sifatlarini, intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishida ko'maklashishi:

- Har birida individual yondashish va pedagogik psixologik jihatdan kuzatib o'rganish:

- Shaxsiy sifatlarni tarkib topishiga qarshilik qiluvchi og'ishishlar, chetga chiqishlarni profilaktika qilish.

Maktabdagi psixologik xizmat, maktab amaliyotchi-psixologi doimiy maktab muhitini bilish va o'qituvchilar va o'quvchilar bilan olib boriladigan ishlarni talab darajasida bo'lishini ta'minlashi kerak. Maktab amaliyotchi-psixologi ta'lim tizimidagi psixologik xizmatning quyidagi yo'nalishlarini bilishi zarur:

- Psixoprofilaktik ishlar.
- Psixodiagnostik ishlar.
- Rivojlantiruvchi va korreksion ishlar.
- Psixologik maslahat ishlari.
- Kasbga yo'naltirish ishlari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi zarur.

Ta'lim tizimidagi psixologlar, pedagoglar o'quvchi va talabalarda yuzaga kelgan muammolarni o'rganib chiqishlari muhim. Bunday hollarda bolada yuzaga kelgan muammolarning sabablari sifatida oilaviy ahvollarini o'rganib chiqishi, oilaning to'liqligiga, oila a'zolarining soniga, salomatlik holatiga, ota-onasining nizoli holatlarini o'rganish zarurdir. Shu bilan birgalikda shaxsning psixologik xolatlarini, individual xususiyatlarini, psixologik jarayonlarini, irodaviy sifatlarini inobatga olish lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, psixologik xizmatning samarali olib borilishi shaxs xulq-atvorida va kelajak taqdirida muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda mamlakatda psixologiya sohasida pedagog kadrlarni tayyorlash hamda amaliyotchi psixologlar faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid bir qator ishlar amalga oshirildi.

So'nggi yillarda mamlakatda psixologiya sohasida pedagog kadrlarni tayyorlash hamda amaliyotchi psixologlar faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid bir

qator ishlar amalga oshirildi. Prezidentimiz qonun farmonlarida xizmatni to'g'ri tashkil qilish chora tadbirlari shaxs kamoloti uchun zaruriy hujjat sifatida keltirishimiz mumkin. Chunki bola ijtimoiy hayotda voyaga yetadi va unda kuzatilayotgan o'zgarishlar atrofda gilarining yordami bilan hal qilish imkoni beriladi. O'smir yoki o'spirinlarda og'ishlarni bartaraf etish amaliyotchi psixologlarning va ota-onaning asosiy vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 12.07.2019 yildagi 577-son. Lex.uz

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" gi PF-134-sonli Farmon

3.Axmatova G. (2024). Sharq va g'arbda jinsiy fenomening tarixiy shakllanishi. Sharh va tadqiqotlar. 2 (3/25). <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/2167> dan olindi.

4.Bekkiyeva N. (2024). O'smirlarda soxta diniy tushunchalarning shakllanishida ijtimoiy omillarning psixologik o'rni. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10775578>

5.Саъдуллаев А. А. ў. (2023). Ўсмир спортчиларда иродавий сифатларни шакллантириш аспектлари. Scholar, 1(8), 112–117. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/2706>